

Abduraxmonov Zaribjon Mansurovich
Qo‘qon davlat universiteti o‘qituvchisi
z-abduraxmonov86@mail.ru

“Ommaviy madaniyat”ning begonalashuvdagi roli.

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Ommaviy madaniyat” inson ongini shakllantirishda, iste'mol qadriyatlarini tarqatishda va shaxsning o‘zligini aniqlash jarayoniga ta'sir ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, u zamonaviy jamiyatda begonalashuv jarayonining kuchayishida ham bevosita ishtirok etadi. Mazkur maqolada ommaviy madaniyatning asosiy xususiyatlari, uning inson va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarga salbiy ta’siri, shaxsiy o‘zlikning yo‘qolishi, sun’iy ehtiyojlarning shakllanishi hamda ma’naviy qadriyatlarning erkin rivojlanishiga to‘siq bo‘lishi singari holatlar tahlil qilinadi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, reklama, ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ib etilayotgan ommaviy madaniyat elementlarining insonni jamiyatdan begonalashtirishi, ijtimoiy izolyatsiya va yolg‘izlikni kuchaytirishi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Begonalashuv, “ommaviy madaniyat”, virtual muloqot, ma’naviy inqiroz, «kompyuteromaniya»

Аннотация

Данная статья посвящена анализу феномена «массовой культуры» в современном обществе, её влиянию на формирование сознания личности, распространение потребительских ценностей и процессы самоидентификации. Рассматриваются ключевые характеристики массовой культуры, её негативное воздействие на естественные связи между человеком и обществом, отчуждение личности, формирование искусственных потребностей, а также препятствия на пути свободного развития духовных ценностей. Особое внимание уделяется тому, как элементы массовой культуры, продвигаемые через информационные

технологии, рекламу и социальные сети, способствуют усилению процессов отчуждения, социальной изоляции и одиночества. В статье глубоко анализируются суть, причины и последствия этих процессов, а также их влияние на индивидуальную и общественную жизнь.

Ключевые слова: Отчуждение, массовая культура, виртуальное общение, духовный кризис, компьютеромания

Annotation

This article analyzes the phenomenon of “mass culture” in modern society, focusing on its impact on shaping individual consciousness, spreading consumerist values, and influencing the process of self-identification. It examines the key characteristics of mass culture, its negative effects on the natural relationship between the individual and society, the alienation of the self, the formation of artificial needs, and the obstacles it poses to the free development of moral and spiritual values. Special attention is given to how elements of mass culture—promoted through information technologies, advertising, and social media—intensify processes of alienation, social isolation, and loneliness. The article provides an in-depth analysis of the nature, causes, and consequences of these processes and their influence on both personal and societal life.

Key words: Alienation, mass culture, virtual communication, spiritual crisis, computer addiction

Kirish

Begonalashuv insoniyat rivojlanishining turli bosqichlarida ijtimoiy-falsafiy tushuncha sifatida o‘ziga xos ahamiyat kasb etgan. Ushbu tushuncha jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarida, madaniyat va ma’naviyatdagi o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi. Zamonaviy dunyoda “ommaviy madaniyat” fenomeni va axloqiy meyorlar transformatsiyasi insonning jamiyatdagi o‘rni va shaxs sifatidagi mohiyatiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunda begonalashuv jarayoni nafaqat iqtisodiy va siyosiy munosabatlarda, balki ma’naviy va madaniy sohalarda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Adabiyotlar tahlili

"Ommaviy madaniyat" atamasi XX asrning o'rtalaridan jamiyatshunoslik va falsafa doirasida, keng qo'llanila boshlangan. Ommaviy madaniyatning begonashuv jarayoniga ta'siri, ayniqsa, axloqiy meyorlar o'zgarishi bilan bog'liq. Inson o'zining milliy qadriyatlaridan, an'alaridan va axloqiy asoslaridan uzoqlashib, sun'iy qadriyatlarga moyil bo'ladi va turli xil gadjetlar inson ongini sun'iy reallik bilan band qilib, uni boshqarish imkonini yaratadi. Shu bilan birga ommaviy axborot vositalari televideniye, kino, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng tarqalib va bu jarayon aksariyat ko'ngilocharlik maqsadi ko'zlanadi. Shu ma'noda "ommaviy madaniyat" – madaniyat mavjudligining murakkab shakli bo'lib, u hamma davrlarda ham bir xil talqin qilinmaydigan jarayon hisoblanadi.[1]

Sh.Qahhorova fikricha, "Ommaviy madaniyat inson ongining shu xususiyatlaridan foydalanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada ommaviy madaniyatning iqtisodiy manfaatlarga asoslangani, uning ko'ngilocharlik va iste'molchilikka urg'u berishi, shaxsni real hayotdan uzoqlashtirib, uni sun'iy qadriyatlarga yo'naltirishi asnosida begonalashuv muammo sifatida olinib O'zbekistonda va G'arb jamiyatlari bilan birga tahlili qilindi.

Natijalar va ularning tahlili

Zamonaviy ommaviy madaniyat va axloqiy meyorlarning o'zgarishi yosh mustaqil davlatlarda milliylikdan chetlashish jarayonini tezlashtirishi mumkin. Bunday holatda jamiyatning ma'naviy ongini mustahkamlash, milliy qadriyatlarni qayta tiklash va yoshlarni axloqiy tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Faqatgina jamoaviy hamkorlik va tizimli profilaktika orqali bunday tahdidlarning salbiy ta'sirini kamaytirish mumkin. U yengil qabul qilinadigan, inson ko'nglini xushlaydigan hayollar, go'zal manzaralar va sarob dunyosiga olib kiradi[2]. Binobarin, moddiy boylik va texnologik taraqqiyot ma'naviyatdan ustun qo'yilayotgani natijasida axloqiy tanazzul yuz bermoqda. Texnologiya va virtual muloqotning ustunligi insonlarning o'zaro munosabatlarini formallashtiradi. Zamonaviy "ommaviy madaniyat" va axloqiy meyorlarning o'zgarishining

begonashuv jarayonidagi roli haqidagi tahlil falsafiy nuqtai nazardan keng qamrovli yondoshuvni talab qiladi.

Teodor Adorno va Maks Xorkxeymer ommaviy madaniyatni "madaniyat sanoati" sifatida tanqid qilib, uni inson ongi va his-tuyg'ularini manipulyatsiya qilish vositasi deb ta'riflaydi. Jan Bodriyarning fikricha, ommaviy madaniyat "simulyatsiya"dan iborat bo'lib, reallikni yolg'on obrazlar bilan almashtiradi. Shaxs jamiyatdagi o'z roli va faoliyatidan uzoqlashadi. Ommaviy madaniyat faqat ko'ngilocharlik yoki tijorat faoliyatini birinchi o'ringa qo'yadi, shaxsning ichki ma'naviy ehtiyojlari chetga suriladi. Milliy qadriyatlardan uzilish, shaxsning o'z tarixiy va madaniy ildizlariga bo'lgan qiziqishini yo'qotishiga olib keladi. Inson muammolardan qochishni afzal ko'radi, mas'uliyat hissidan chetlanib, hayotni yengil ko'ngilocharlik orqali qabul qiladi. Montenning fikriga ko'ra, inson jamiyatdagi qiyinchiliklardan qochish uchun ma'lum bir "xayollar dunyosi"ga kirib ketadi. Jumladan, olim M.Quronov «Ommaviy madaniyat» niqobidagi ma'naviy tahdidlarga quyidagicha ta'rif beradi: biror xalq yoki millatning madaniyati emas. Agar u biror-bir xalq yoki millatga mansub bo'lganida edi, ularning tarixiy va zamonaviy ideallari asosiga qurilgan bo'lar edi. Hech shubhasiz, bunday ideallar har bir xalq va millat madaniyatida bor. «Ommaviy madaniyat» – robotdek bir xil o'ylaydigan, bir xil narsaga qiziqadigan o'rtamiyona odam madaniyati»[3]. Aynan shunday jarayonni guvohi bo'lmoqdamiz. Pulga nisbatan istak oshib bormoqda, turli shoularni yaratish hamda ko'rish, kiyinishda, ovqatlanishda deyarli farq qilmaydi. Tabiiyki bunday moddiy ehtiyojlarni qondirish uchun inson boshqa bir inson bilan yoki jamiyat bilan munosabatida samiyimiylik o'rnini manfaat egallaydi. Oqibatda jamiyatdan uzoqlashish sekin-asta yuz bera boshlaydi. U.Saidovning fikricha: «Ommaviy madaniyat madaniy globallashuvning ekspansiyaning, qolaversa, mafkuraviy tazyiqning eng xavfli qurollaridan biri»[4]. SH.To'rayev ham bu borada o'z fikrlarini keltirib shunday degan: «Ommaviy madaniyat hodisasi milliy madaniyat va qadriyatlarga zid o'laroq, ayrim shaxslar tomonidan o'ylab topilgan g'oyalar, udumlar va odatlar majmuini qamrab oladi». Faylasuf olim A.Erkayev esa: «Ommaviy madaniyat dunyoda juda tez va keng tarqaldi. Ommaviy madaniyatda ba'zi bir ijobiy jihatlar

bilan bir qatorda salbiy jihatlar ham ko'p. Eng avvalo, ommaviy madaniyat insonning barcha sohalarda, jumladan, madaniyat va dam olish, bo'sh vaqtni tashkil qilish borasida ham individualligini yo'qotgan iste'molchiga aylantirib qo'yadi[5].

Insonning iste'molchilikka asoslangan psixologiyasi shakllantiriladi. Bu holat shaxsning ijtimoiy mas'uliyatini pasaytirishga, uni mahsulot iste'molchisiga aylantirishga olib keladi. Ommaviy madaniyat shaxsni real hayotdan uzoqlashtirib, xayoliy g'oyalar dunyosiga yetaklaydi. Masalan, ortiqcha melodramatik seriallar, yuqori qiymatga ega bo'lmagan syujetlar, inson ongiga stereotiplarni singdiradi.

Yoshlar orasidagi «got», «pank» kabi submadaniyatlar, axloqiy meyorlarni inkor etishga asoslangan oqimlarning kengayishi milliy qadriyatlarning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Milliylikni inkor etuvchi targ'ibot shaxsning milliy o'ziga xosligini susaytiradi. Begonalashuv insonning o'z qadriyatlari, ijtimoiy muhiti va ongi bilan bog'liq aloqalarni yo'qotishini anglatadi. Ommaviy madaniyat inson ongiga global g'oyalarni singdirish orqali milliy an'analarga nisbatan qiziqishni pasaytiradi. Insonni o'zining tarixiy va madaniy ildizlaridan uzoqlashtirish orqali uning milliy o'zligini zaiflashtiradi. Inson hayotidagi axloqiy tamoyillarning turfa xilligini kamaytirib, uni standartlashtirishga intiladi. Axloqiy meyorlarning o'zgarishi jamiyatdagi ma'naviy asoslarning zaiflashuviga olib keladi va insonni mahsulot va g'oyalarning iste'molchisiga aylantiradi, bu esa shaxsning ma'naviy boyligini zaiflashtiradi.

Yoshlar g'ayri madaniyatning eng katta iste'molchisi bo'lgani uchun, ularning axloqiy ongiga bo'lgan ta'sir eng jiddiydir. Yosh davlatlarning milliy, siyosiy va ijtimoiy tizimlariga begona g'oyalar singdiriladi. Missionerlik va prozelitizm kabi harakatlar orqali diniy va milliy mojarolarni kuchaytirishga qaratilib, shu bilan birga axloqiy va ma'naviy zaiflikni kuchaytirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Fan va texnika taraqqiyotining yana bir ezgu maqsadi insonning kundalik ehtiyojlarini qondirish edi. Ilm o'z yutuqlari bilan ochlarni to'ydirishi, yupunlarni kiydirishi, uysizlarga boshpana berishi lozim edi. Biroq natijalar o'zgacharoq chiqdi: bugungi kunda fan va texnika sayyoramizdagi barcha kishilarning kundalik

ehtiyojini qondirish imkoniga ega bo'lgan bir paytda shaxs ma'naviy qiyofasida ochko'zlik va xudbinlik ildiz otib bormoqda. Fan va texnika taraqqiyoti sharofati bilan moddiy boyliklarning oshib borishi hasad deb atalmish illatning yanada yorqinroq yuz ochishiga sabab bo'ldi. Eng qizig'i, fan va texnika taraqqiyotni insonning mashinalarga qaramligini oshirmoqda.

Axborot texnologiyalari sohasida ham yetarlicha muammolar ko'zga tashlanadi. Xususan, mablag' talab etadigan sun'iy yo'ldoshga hamma davlat ham egalik qilolmaydi. Yana bir dolzarb muammolardan biri bo'lgan Fan va texnika taraqqiyotining yana bir mahsuli globallashuv jarayoni ham hozirgi zamon kishisiga murakkab ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqlar va millatlar o'rtasidagi aloqalarning murakkablashib ketishi, ijtimoiy taraqqiyotning jadallashuvi shaxs va jamiyat orasidagi aloqadorlik muvozanatini buzmoqda. Natijada shaxsning ijtimoiy voqelikka ta'siri kamayib, jamiyatning esa shaxsga ta'siri yo'nalishlari ko'payib bormoqda. Globallashayotgan dunyo, jadallashayotgan progress, farovonlashayotgan turmush shaxsning jamiyatdagi o'rniga, ijtimoiy mavqeyiga putur yetkazmoqda. Globallashuv sharoitida jahon xalqlarining milliy-madaniy qadriyatlari uyg'unlashib, yangi faoliyat normalari va prinsiplari, qoidalari va qadriyatlari qaror topib borayotganini kuzatish mumkin. Bunday sharoitda esa dunyo xalqlari, xususan kam sonli millatlarning milliy an'ana va qadriyatlari xavf ostida qolmoqda. G'arb olimlari tomonidan ayni shu jihatni ko'zda tutgan «erituvchi qozon nazariyasi» ilgari surilmoqda. Bu nazariya tarafdorlarining fikricha, globallashuv sharoitida millatlarning qadriyatlari, an'ana va urf-odatlari bir qozonda qaynagan taomdek qo'shib, aralashib ketadi[6]. Mualliflarning qanchalik xaq ekanliklari masalaning boshqa jihati, biroq bugunning o'zidayoq global o'zgarishlar natijasida shaxs qadriyatlari sistemasi jiddiy o'zgarib borayapti. Rivojlangan mamlakatlarda shaxs ongi va faoliyatining kriminalizatsiyasi va nigilizatsiyasi sodir ushbu yuksak ma'naviyat shakllanishining qonuniyatlarini topishga. asl sabablarini ifodalab berishga intiladilar.

Jamiyatdan begonalashuv-bu bosqich o'ziga xos ko'rinishda yuzaga keladi. Muammoning burulish nuqtasi aynan ushbu bosqichga to'g'ri keladi. Inson tabiatan shunday yaralgan-ki u yon-atrofidagi boshqa insonlarsiz, jamiyatdan

alohida yashay olmaydi. Aynan shu masalada Abdurauf Fitratning jamiyat va inson munosabatlarini juda sodda, tushunarli tarzda o'z asarida to'xtalib o'tadi. «Odamlarning madaniy toifa ekanliklari, ya'ni tabiat hukmi ila bir qabila yoki bir qavm suvratida jam bo'lib bir-birlariga yordam berib yashashlari ma'lum. Kimki ana shu tabiat qonuning doirasidan chiqsa, ya'ni jamiyatdan chetlashsa, shubhasiz mahv va nobud bo'lgay»[7]. Bizningcha ham shunday inson jamiyatdan alohida tarzda yashashi dastavval o'sha insonning halokati, so'ngra bu toifadagi kishilar ko'pchilikni tashkil qiluvchi jamiyatning ham uzoqqa bormasligi, bir-biridan begonalashib chiqur tanazzulga ketishi muqarrardir.

Xulosa

Begonalashuv zamonaviy jamiyatda tobora chuqurlashayotgan murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy-falsafiy muammodir. Ayniqsa, globallashuv, ommaviy madaniyat va texnologik taraqqiyot sharoitida bu jarayon shaxsning ichki dunyosi, ma'naviy olami, axloqiy me'yorlari hamda ijtimoiy muhit bilan aloqalariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa shaxsning ijtimoiy mas'uliyatini susaytiradi, tarixiy va madaniy ildizlarga bo'lgan qiziqishni yo'qotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Фалсафа: қомусий луғат. –Тошкент: Шарқ, 2004. –Б.313
2. Қаҳҳорова Ш. Глобал маънавият – глобаллашувнинг ғоявий асоси. – Т.:Тафаккур,. 2009.
- 3.Қуроноф М., Эсонбоев Ф., Гибрид олмадан, гибрид одамгача. -Т.: Муҳаррир, 2010, 13 б.
4. Саидов У.А. Глобаллашув шароитида таълим соҳасидаги ва «оммавий маданият» кўринишидаги мафкуравий тайзиқлар. // Маънавий таҳдидлар ва уларга қарши курашнинг илмий-услубий ҳамда маънавий-мафкуравий асослари. -Т.: Муҳаррир. 2010. 147 б.
- 5.Тўраев Ш. Маънавий таҳдидлар: уларнинг салбий оқибатлари ва олдини олиш чоралари. // Маънавий таҳдидлар ва уларга қарши курашнинг илмий-услубий ҳамда маънавий-мафкуравий асослари. -Т.: Муҳаррир. 2010. 159 б.
6. Эркаев А. Маънавият ва тараққиёт. -Т.: Маънавият, 2009. 215-216 б.

7. Ёқубов С Ахборот жамияти: хаёлот эмас, ҳақиқат // Тафаккур -2007. - №4 - 15-6